



TALABALARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA XORIJIY TAJRIBALAR

Namazbayeva Lola Zakirovna

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Universiteti,
“Maktabgacha ta’lim texnologiyasi” kafedrasi p.f.f.d. (PhD), v.d. dotsenti.*

Annotatsiya: Talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda xorijiy tajribalar tahlili hozirgi kunda juda dolzarb. Xorijiy tajribalardan foydalanish talabalarning o‘quv-tadqiqot faoliyati atrof-olam va jamiyat to‘g‘risidagi bilimlarni mustahkamlaydi, dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirdi, kasbiy faoliyatga ijobiy munosabat uyg‘otish bilan birga maqsadni belgilash, mantiqiylik, samarali diagnostik ishlarni olib borishda muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: tadqiqot, intellektual o‘zini o‘zi belgilash, professional harakatchanlik, tanqidiy fikrlash, ijodiy vazifalar, ilmiy tadqiqot, tadqiqotchilik faoliyati.

FOREIGN EXPERIENCES IN PREPARING STUDENTS FOR RESEARCH ACTIVITY

Abstract: The analysis of foreign experiences in preparing students for research activities is very relevant today. The use of foreign experiences in the educational and research activities of students strengthens knowledge about the environment and society, forms the worldview on the basis of national and universal values, instills a positive attitude towards professional activity, as well as goal setting, logic, effective diagnostic work. is important.

Key words: research, intellectual self-determination, professional mobility, critical thinking, creative tasks, scientific research, research activity.

So‘ngi vaqtlarda pedagogika yo‘nalishi oliy ta’lim tashkilotining o‘quv jarayonini, talabalarning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorligi, shaxsning individual va yaxlit holatdagi rivojlanishi bilan birgalikda shakllantirish vositasi sifatida ko‘rib chiqdi. Talabalarning ilmiy faoliyati xorijiy, hamda MDH davlatlarida uzluksiz kasbiy va pedagogik ta’lim sohasida innovatsion jarayonlarning ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etildi.

Xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, Evropa pedagogika institutlarida talabalarni ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlariga kengroq jalb etish orqali ilmiy va



o'quv mashg'ulotlarining birligini ta'minlash jarayoni tobora faollashib bormoqda. Bo'lajak tarbiyachilarning tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirilganligi muammosi ularning shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi belgilashi va kasbiy madaniyatining eng muhim sharti hisoblanadi. Misol uchun, Frantsiya, Vengriya, Germaniyada nafaqat davlat va milliy ta'lim standartlari talabalarni ilmiy tadqiqotlarga majburiy jalb qilishni ko'rsatadi, balki universitetning ayrim bo'limlari ham qabul qilish talablaridan biri sifatida tugallangan va himoyalangan ilmiy loyihaning mavjudligini belgilaydi. Budapesht pedagogika universitetida bo'lajak o'qituvchining ta'lim darajasiga qo'yiladigan talablar, jumladan, "ilmiy bilimlarning mohiyatini tushunish" va "ilmiy tadqiqot olib borish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni rivojlantirish va takomillashtirish" ni o'z ichiga oladi.

"Bilimlar asri" deb belgilangan yangi asrda xorijiy pedagogika oliy o'quv bilim yurtida ta'limning maqsad va mazmuni qayta ko'rib chiqilmoqda. Bu erda gap birinchi navbatda talaba shaxsining ijodiy salohiyatini, nafaqat universitetning o'qish davrida, balki butun hayoti davomida o'zini-o'zi anglash, o'zini namoyon qilish ehtiyojini shakllantirish haqida bormoqda. Ta'lim jarayonini o'qitishdan rivojlanishga yo'naltirish amalga oshirilmoqda, natijada quyidagi mezonlarga javob beradigan mutaxassis modeli paydo bo'ladi: professional harakatchanlik, axborot-texnologiya dunyosiga tez moslashish, yuqori darajadagi intellekt, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, mustaqillik va h.k.

Umuman olganda, chet el olimlari (S.Brukfeld, F.Buxberger, F.Kampos, G.Kollier, P.Cermeli) talabalarining tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishdagi eng muhim vazifalardan biri ma'lum echimi bo'lmagan vaziyatda (savol yoki muammo), o'zining holatidan yangi bir holatga o'ta olish qobiliyatini shakllantirish, vaziyatga ta'sir qilish usullarini aniqlash, savolga javob topish, muammoni hal qilish ekanligiga qo'shiladilar. Tadqiqot jarayonida talaba taqqoslash va aloqalarni o'rnatish uchun asosli dalillarni qidiradi. Buning uchun u ma'lumotlarni sharhlash, olingan bilimlarni umumlashtirish va kashfiyotini himoya qilish uchun barcha bilim va mavjud manbalardan foydalanadi. Tadqiqot olib borish orqali talabada "intellektual o'ziga ishonch" "intellektual o'zini o'zi belgilash" (self-reliance) (S. Rast, R. Vinter) rivojlanadi, chunki u shunchaki kitobni ochib, kalitdan to'g'ri javobni topa olmaydi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida talabalarining tadqiqotchilik faoliyati ma'lum qonuniyatlar bo'yicha rivojlanadi:

- uni tashkil etishning yangi shakllari paydo bo'ladi;



- talabalarga tadqiqotchilik faoliyatini o'rgatishda uzluksizlik ta'lim tizimi amalga oshiriladi (maktab - (kolledj) universitet-doktarantura);

- subyekt rivojlanadi - tadqiqot faoliyatida subyekt munosabatlari. Oddiy ta'lim sharoitida "o'qituvchi"- "talaba", ya'ni "bilimlarni uzatish"- "bilimlarni o'zlashtirish" standart pozitsion sxemasi amalga oshiriladi. Tadqiqotchilik faoliyatining rivojlanishi bilan bu pozitsiyalar bor haqiqatlarga duch keladi: bilimlarning tayyor standartlari yo'q, ular tayyor sxemalarga mos kelmaydi, lekin har bir konkret xolatda alohida mustaqil tahlilni talab qiladi. Bu ta'lim faoliyatining obyekt-subyektiv paradigmasidan atrofdagi voqelikni birgalikda tushunish holatiga evolyutsiyaning boshlanishini, uning ifodasi esa "hamkasb-hamkasba" juftligidir. Ko'rib chiqilayotgan pozitsion evolyutsiyaning asosiy natijasi tadqiqotchilik faoliyati a'zolarining tolerantlik chegaralarining kengayishidir.

Hozirgi vaqtda Yevropa pedagogik ta'lim muassasalari talabalarining ilmiy ijodiyotning turli shakllarida ishtirok etish faolligi oshib bormoqda. Yevropa Ittifoqi davlatlarining yetakchi universitetlarida yirik ilmiy markazlar, muammoli laboratoriyalar, tadqiqot guruhlarini tashkil etilgan. Germaniya, Niderlandiya, Avstriya, Vengriya universitetlarining o'quv dasturlari talabalar tomonidan butun o'quv yili davri uchun ma'lum miqdordagi tadqiqotchilik ishlarini bajarishni nazarda tutadi. Tadqiqot faqat kurs ishi va dissertatsiyalar yozish bilan cheklanib qolmay, balki ushbu universitetlarning ilmiy guruhlarini, ilmiy bo'limlarining ish rejalariga kiritilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu jarayonlar jamiyatga pedagogik faoliyatda ilmiy izlanishlarga tayyor bo'lgan, ilmiy mustaqil, tashkilotlardagi ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli tahlil qila olgan, pedagogik hodisalarni aniqlay olgan va oldindan ko'ra olgan, ijodkor, samarali fikrlaydigan, axborotni operativ qayta ishlay oladigan, o'quv-uslubiy va ilmiy-pedagogik faoliyatni o'z ichiga oluvchi yuqori muloqat va tadqiqot madaniyatiga ega bo'lgan o'qituvchiga muhtojligi bilan izohlanadi.

Ko'pgina olimlarning fikricha, bugungi axborot asrida fikrlash qobiliyatlari bilimni odamga tez o'zgarayotgan dunyoga moslashishga yordam beradi. Ularning fikricha, aniq bilim kelajak mutaxassisi uchun yangi ma'lumotlarni o'rganish va tushunish qobiliyati kabi muhim bo'lmaydi.

Insoniyat mavjud bo'lgan davrda tarixchilar, siyosatchilar, faylasuflar va o'qituvchilar "chuqur va tez fikrlash" tafakkur san'ati va ilmi haqida qayg'urganlar. 21-asrda mantiqiy fikrlash jarayoniga kirib borishni har xil tomondan ko'rib chiqish mumkin: o'qimishli shaxsning asosiy bazasi, demokratik jamiyatda mas'uliyatli



fuqaroga qo'yiladigan talab va hozirgi vaqtda kengayayotgan mehnat bozorida talabchan bo'lish qobiliyati sifatida.

Kathleen Cotton o'z ma'ruzasida shunday deydi: "Talabalarni samarali fikrlashga o'rgatish tobora ko'proq ta'limning ajralmas maqsadi sifatida qaralmoqda. Talabalar jamiyatda samarali faoliyat yuritishi kerakligi sababli, doimiy o'zgaruvchan dunyoda ular butun hayoti davomida bilim olishga o'rgatish, fikrlash, axborotni qabul qilish va qayta ishlash ko'nikmalari bilan jihozlanishi kerak.

Shu bilan birga, S. Norris o'z tadqiqotida "tanqidiy fikrlash unchalik keng tarqalmagan. Ko'pgina talabalar taxmin qilish, dalillarni baholash va xulosalarni baholash testlarida muvaffaqiyatsizlikka uchraydi"[1].

Olimlarning fikricha, talabalarni o'quv va amaliyot ta'limi orqali ijodiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatish mumkin. R.Ristouning ta'kidlashicha, avvallari bu qobiliyatlar "ta'lim tabiiy in'om, genetik taqsimot... insonda mavjud yoki mavjud bo'lmagan sifatlarning rivojlanishi uchun hech qanday ta'sir qila olmaydi" deb hisoblangan.

Oxirgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy qobiliyat va ko'nikmalarni to'g'ridan-to'g'ri o'rgatish talabalarni yaxshi fikrlashga olib keladi. Ta'kidlanishicha, o'qituvchi talabani tadqiqot jarayonida birinchi navbatda muayyan masala bo'yicha tanqidiy fikrlash qobiliyatini qanchalik mohirona namoyon etganligini baholaydi[2].

O'quv jarayonida fikrlash madaniyatining rivojlantirishi, quyidagi boshqalar ko'rmaydigan joyda ko'rish qobiliyati, turli xil turdagi vazifalarga moyillik (mavzu bo'yicha xilma-xil yo'nalishli, ijodiy vazifalar), g'oyalarni yaratish qulayligi (fikrlash mahsuldorligi), natijani oldindan ko'ra olish, yangilikni kashf etish (eskidan voz kechmagan holda), fikrlashning o'ziga xosligi va moslashuvchanligini o'z ichiga oladi. Tafakkur madaniyatini rivojlantirish shu tariqa uning ijodkorligini maqsadli, talabalarga aqliy harakatlar texnikasi va texnologiyasini, samarali bilish izlanish jarayonlarini o'rgatishni nazarda tutadi.

Yevropa pedagogika ta'lim muassasalarida talabalarni tadqiqot ishlariga tayyorlash maxsus ishlab chiqilgan dasturlar bo'yicha amalga oshiriladi. London, Praga, Avinon, Vayzgrad pedagogika universitetida shu kabi dasturlarni tahlil qilishni va o'quv jarayoni davomida talabalarning ilmiy faoliyatini tashkil etish mazmunining umumiy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Dasturlarda talabalar tomonidan o'rganilayotgan o'quv fanlari ushbu yo'nalishlar bo'yicha bilimlarni boyitish zarurligi qayd etilgan. Tadqiqot topshirig'i talabani akademik qobiliyatini tekshirishning samarali usuli hisoblanib, ma'lum



bir ilmiy mavzuga “kirish” imkonini beradi, bu yerda u erkin munozarali, aytishi mumkin bo‘lgan fikr doirasida o‘z farazlarini “sinovdan o‘tkazadi”. Shunday qilib, talabanning tadqiqoti o‘quv jarayoni mobaynida quyidagilarni nazarda tutadi:

- ilmiy ish usullari bilan tanishish, o‘quv va ilmiy tadqiqotning metodologik muammolari;

- fanlar doirasida qabul qilingan tushuncha va nazariyalar bilan tanishish;
- mavzu doirasidagi ma’lumotlarning konventsionalari va tuzilishini tushunish;
- tadqiqot uchun zarur materiallarni topish va joylashtirish usullarini o‘rganish;
- manbani tanqidiy o‘qish, so‘ng tahlil va baholash;
- tadqiqotning asosiy qoidalarini shakllantirish maqsadida asosiy manbani tuzish;

tuzish;

- tadqiqot masalasi bo‘yicha tushuncha va nazariyalarni tahlil qilish, sharhlash va muammo bo‘yicha o‘z tushunchasini taqdim etish (og‘zaki yoki yozma);

Chet el pedagogik, psixologik va uslubiy adabiyot va o‘quv programmalar London, Praga, Avinon pedagogika universitetlari shu jumladan Vayzgrad va Budapesht pedagogika universitetlarining o‘quv dasturlarini tahlil qilish o‘qituvchi-tadqiqotchining bilim va mahorat darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablarni aniqlash imkonini berdi:

Tadqiqotchi o‘qituvchi:

- kasbiy tayyorgarlikning yuqori darajasiga ega;
- ilmiy va amaliy tayyorgarligi optimal tarzda uyg‘unlashgan bo‘ladi;
- butun umri davomida bilimni yangilab to‘ldirib turadi;
- ilmiy tashkil etish tamoyillarini amaliyotda qo‘llaydi;
- kuzatuvchanlik, intellektual faollik, o‘ziga xos tadqiqot uslubi, fikrlashning moslashuvchanligi va o‘ziga xosligi, sezgi, obyektivlik, tanqidiylik kabi pertseptual-gnostik fazilatlarga ega.

O‘qituvchi-tadqiqotchi pedagogik tadqiqotning mantiqi, metodikasi, metodologiyasi, tartibi, ilmiy axborotni to‘plash, qayta ishlash, foydalanish tamoyillari va usullari, tadqiqot natijalarini nashrga tayyorlash jarayoni, mehnatni ilmiy tashkil etish asoslari bilishi kerak.

O‘qituvchi-tadqiqotchi quyidagilarga qodir:

- olingan bilim va ko‘nikmalarni pedagogik va tadqiqot muammolarini hal qilishda qo‘llash;
- pedagogik yoki tadqiqot vazifasini shakllantirish va uni samarali hal etish strategiyasini tanlash;
- oqilona istiqbolli rejalashtirishni amalga oshirish;



- oldindan ko‘ra olish va tahlil qilish;
- hamkasblar tajribasini o‘rganish va umumlashtirish;
- ilmiy apparatga, ilmiy tafakkur uslubiga egalik bo‘lish;
- o‘zining tadqiqotchilik ehtiyojlarini aniqlash;
- tadqiqot muammosini mustaqil ravishda shakllantirish va uning vazifalariga mos keladigan usullardan foydalanish;
- psixologik-pedagogik hodisa va faktlarni kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, tizimlashtirish, xulosalarni ishonchli asoslash, materialni aniq, uslubiy jihatdan aniq adabiy tilda bayon etish;
- axborotni qidirish, qayta ishlash va undan foydalanish algoritmidan foydalanish;
- mutaxassislik bo‘yicha ilmiy, ommabop, siyosiy, uslubiy adabiyotlarni yaxshi tushunish, bilish, kutubxona fondlari bilan ishlash;
- axborot va kompyuter savodxonligiga ega bo‘lish.

Shu o‘rinda biz yevropalik olimlarning “tadqiqot”, “ilmiy tadqiqot”, “tadqiqotchilik faoliyati” tushunchalarini talqin qilish zaruriyati paydo bo‘ldi. Xorijda asosiy tushunchalarni aniqlash bo‘yicha olimlar o‘rtasida kelishuv mavjud emas. Tor ma’noda xorijiy adabiyotlarda ilmiy tadqiqot yangi bilimlarni yuzaga keltiradigan original kashfiyot sifatida tushuniladi (R.Berges, J. Gordon, G. Jeney, G. Kole).

“Tadqiqot” atamasi mavjud bilimlarni yangi nuqtai nazardan ochishni ham o‘z ichiga oladi (R.Geyger). Masalan, F.Kerlinger quyidagi ta’rifni taklif qiladi: “Ilmiy tadqiqot – maqbul tabiat hodisalari haqidagi farazlarni tizimli, boshqariladigan, empirik va tanqidiy o‘rganishdir”.

Devid Vudxausning fikriga ko‘ra, tadqiqotchilik faoliyati, intellektual boshqariladigan ilmiy tadqiqot bo‘lib, yangi ma’lumotlarni ochish va tizimlashtirish yoki mavjud ma’lumotlar asosida amaliyotni rivojlantirish, ommoga xabardor qilish orqali yangi bilimlarni egallash demakdir.

Bir qator yevropalik olimlar (D.Bod, G.Gibbs, R.Ristou, S.Tomas, R.Xorn, P.Cermeli) fikricha, ilmiy maqolalar yozish uchun adabiyot manbalarini izlash ham o‘ziga xos tadqiqot turidir.

Tadqiqotchi yakuniy javobi bo‘lmagan savolni beradi, haqiqiy tadqiqot (shu jumladan, asl tadqiqotlar) ochiqlicha qolaveradi, (B. Takman).

Talaba-tadqiqotchi nafaqat dalillar haqida bilimga ega, balki tanqidiy savollarni ham beradi, ma’lumotlarni mohirona boshqaradi va dalillarning statistik qiymatini aniqlaydi (V.Karr). Bundan tashqari, tadqiqotchi-talaba kompyuter savodxonligiga



ega, mustaqil va jamoada ishlash qobiliyatiga ega, u doimo boshqarishga muhtoj emas, doimo maqsadlari yodida bo'ladi, ishni o'z vaqtida tugatadi va qilayotgan ishidan zavqlanadi (D. Baud, S. Norris, P. Cermeli).

Tadqiqot tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi faol jarayon sifatida belgilanadi, guruhda ishlash va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning tabiiy mexanizmi sifatida hamdir (L. Norton). Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlar boshqalarga qaraganda ancha samarali ta'lim mazmunidagi faoliyat hisoblanadi. Tadqiqotlar mazmun uchun kontekstni ta'minlaydi, uni yanada mazmunli qiladi (R. Geiger).

Shunday qilib, xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida biz Yevropa talabalarining tadqiqotchilik faoliyati - bu yangi bilimlarni kashf etishga olib keladigan tadqiqot muammosini hal qilish bilan bog'liq holda yakka yoki guruhda amalga oshiriladigan intellektual boshqariladigan faoliyat degan xulosaga keldik, bu esa yangi bilimning ochilishiga olib keladi. Tadqiqotchining asosiy kompetensiya va malakalari (mustaqillik, ijtimoiy mas'uliyat, hamkorlik qilish qobiliyati, o'z-o'zini tarbiyalash, tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, kompyuter va axborot savodxonligi) mavjudligini nazarda tutadi, ularning asosiy natijasi o'ziga xos intellektual mahsulotdir. Ilmiy haqiqat ilmiy tadqiqotlar natijasida va standart shaklda taqdim etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Namazbayeva, L. (2023). CONTENT FACTORS AND PRINCIPLES OF PREPARING FUTURE EDUCATORS FOR RESEARCH ACTIVITY. *European International Journal of Pedagogics*, 3(02), 19-30.
2. Намазбаева, Л. З., & Латипова, Л. С. (2023). ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В СОВРЕМЕННОМ РАКУРСЕ ВОСПРИЯТИЯ. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(4), 84-91.
3. Xalilova Dilnoza Furqatovna. "Maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish". Ta'lim sifati – Yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili, Qo'qon 21 iyun 2023 yil. 677-679.
4. Jumaniyazova, Z. R. (2023). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH KARAKALPAK FOLK GAMES. *European International Journal of Pedagogics*, 3(01), 9-15.
5. Жуманиязова, З. Р. (2021). ХАРАКАТЛИ УЙИНЛАР ВА УЛАРНИНГ ЯРАТИЛИШИ: Жуманиязова Злиха Реймовна Мактабгача таълим



ташкilotлари директор ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти мактабгача таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6), 119-122.

6. Babayeva, D. R., & Ochilova, X. S. (2022, October). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ O 'STIRISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O 'RGATISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 21-23).
7. Sadikova, D. (2022). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL KACHESTV STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATION ON THE BASIS OF INNOVATIVE EDUCATION TECHNOLOGY-AS AN ACTUAL EDUCATIONAL PROBLEM. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 46-50.
8. qizi Abdiyeva, F. F. (2023, January). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV MADANIYATINI INNOVATION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 397-400).
9. Abdieva, F. (2022). IMPROVING THE MANAGEMENT CULTURE OF DIRECTORS OF PRE-SCHOOL EDUCATION ORGANIZATIONS. *Science and Innovation*, 1(8), 2154-2156.
10. Abdieva, F. (2022). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ДИРЕКТОРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ МАДАНИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Science and innovation*, 1(B8), 2154-2156.